

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024-yil "24" iyundagi "415"-son
buyrug'iga ilova

Statistik registrlarning raqamli bazasini yuritish va undan foydalanish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Statistik registrlarning raqamli bazasini yuritish tartibi to'g'risida nizom (keyingi o'rinlarda - Nizom) O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qaroriga muvofiq statistik registrlarning raqamli bazasining maqsadi, vazifalari va tamoyillarini hamda uni yuritish va undan foydalanishdagi munosabatlar tartibini belgilaydi.

2. Statistik registrlarning raqamli bazasi rasmiy statistikaning yagona axborot tizimi tarkibidagi idoraviy axborot resursi hisoblanadi.

3. Statistik registrlarning raqamli bazasini ishlab chiqish, yuritish, texnik qo'llab-quvvatlash, uning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish, uzluksiz ishlashini ta'minlash hamda idoraviy axborot tizimlari va bazalari bilan integratsiya qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Statistika agentligi jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi registrlar va ma'lumotlar bazalarini yaratadigan hamda yuritadigan davlat organlari va ularning tasarrufidagi tashkilotlardan statistika registrlarini shakllantirish hamda o'z vaqtida yangilash uchun zarur bo'lgan axborotlarni bepul oladi.

5. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

statistika registrlari – statistika maqsadlarida foydalanish uchun zarur bo'lgan statistika birliklarining va ular tavsiflarining ro'yxatlari, shu jumladan identifikatorlar;

statistik registrlarning raqamli bazasi – turli manbalardan, jumladan ma'muriy ma'lumotlar bazalaridan statistik registrlarni yuritish uchun olinadigan ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish uchun mo'ljallangan axborot tizimidir.

ma'lumotlar to'plami pasporti – statistik registrlarning raqamli bazasida aks ettiriladigan ma'lumotlar hamda ularni taqdim etishga mas'ul davlat organlari va tashkilotlari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui;

ma'muriy ma'lumotlar – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq shakllantiriladigan ma'lumotlar;

ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar – jismoniy va yuridik shaxslar, obyektlar hamda hodisalar to'g'risidagi registrnlarni va ma'lumotlar bazalarini yaratadigan hamda yuritadigan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va ularning tasarrufidagi tashkilotlar;

shaxsga doir ma'lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot;

mas'ul xodim – tegishli statistik registrnlarning raqamli bazasini yuritish uchun mas'ul etib belgilangan xodim;

foydalanuvchilar – statistik registrnlarning raqamli bazasidan foydalanuvchi Statistika agentligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarma va bo'limlari.

2-bob. Statistik registrnlarning raqamli bazasi

maqsadi va vazifalari

6. Quyidagilar statistik registrnlarning raqamli bazasi (keyingi o'rinlarda – axborot tizimi) maqsadi hisoblanadi:

ma'muriy ma'lumotlardan foydalanish asosida raqamli statistik registrnlarni shakllantirish va yuritish orqali statistik ko'rsatkichlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish;

statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarini raqamlashtirish hisobiga ularning samaradorligini yanada oshirish;

statistika kuzatuvlarini bosqichma-bosqich maqbullashtirish orqali respondentlarga hisobot yukini kamaytirish hamda statistika hisobotlari sonini minimallashtirish;

statistika ma'lumotlarining izchilligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun standart tasniflagichlarni ishlab chiqish va qo'llashni rag'batlantirish;

katta hajmdagi ma'lumotlarni yaratishda ma'lumotlarni oson qidirish va tahlil qilish imkoniyatini yaratish.

7. Quyidagilar axborot tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

yagona xalqaro va umumdavlat klassifikatorlar asosida statistika birliklari va ularning xususiyatlari hisobini yuritish, ularni identifikatsiyalashni ta'minlash;

birlamchi statistika ma'lumotlarini yig'ish uchun sarflanadigan vaqtni tejash;

ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarga doir muhim ko'rsatkichlarni aniqlab olish hamda ularni sifatini oshirish;

bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish va keng qamrovli ma'lumotlar to'plamini yaratish uchun tegishli ma'lumotlarni bog'lash;

ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish sohalarida statistika registrlarining rolini oshirish uchun umumiy asoslar va metodologiyalarni qo'llash;

ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardan olingan ma'lumotlarni to'plash va saqlash, shuningdek, ularni foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etish.

3-bob. Statistik registrlarning raqamli bazasini ishlab chiqish

8. Axborot tizimi quyidagi sohalar bo'yicha statistik registrlarning raqamli bazalaridan tashkil topadi:

- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri;
- Aholi statistik registrining raqamli bazasi;
- Ko'chmas mulk statistik registrining raqamli bazasi;
- Sog'liqni saqlash statistik registrining raqamli bazasi;
- Qishloq xo'jaligi statistik registrining raqamli bazasi;
- Sanoat statistik registrining raqamli bazasi;
- Energetika statistik registrining raqamli bazasi;
- Qurilish statistik registrining raqamli bazasi;
- Moliya statistik registrining raqamli bazasi;
- Tashqi savdo statistik registrining raqamli bazasi;
- Ilm-fan va ta'lim statistik registrining raqamli bazasi;
- Transport vositalari statistik registrining raqamli bazasi;
- Madaniyat va turizm statistik registrining raqamli bazasi;
- Ekologiya va atrof-muhit statistik registrining raqamli bazasi;
- AKT va aloqa statistik registrining raqamli bazasi;
- Yo'llar va infratuzilma statistik registrining raqamli bazasi.

Bunda idoraviy ma'muriy ma'lumotlar bazalaridagi mavjud ma'lumotlardan kelib chiqib, sohalar bo'yicha statistik registrlarning raqamli bazasi nomiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

9. Axborot tizimi tarkibiga kiruvchi har bir sohalar bo'yicha statistik registrlarning raqamli bazalarini ishlab chiqish va yuritish mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

10. Har bir sohalar bo'yicha statistik registrlarning raqamli bazasini ishlab chiqish jarayonida, Statistika agentligi markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo'linmalari, mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq:

statistika kuzatuv shakllari yordamida olinadigan ko'rsatkichlar ro'yxatini shakllantirishni;

mazkur ko'rsatkichlar ro'yxatini tegishli davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan hamkorlikda ma'muriy ma'lumot bazalaridagi mavjud ma'lumotlar bilan solishtirish ishlarini;

statistika kuzatuvi shakllari yordamida olinadigan ko'rsatkichlarni solishtirish, tekshirish va istiqbolda o'rniga qo'llashni inobatga olgan holda ma'muriy ma'lumot bazalaridagi ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha mazkur Nizomning 2-ilovasiga asosan ma'lumotlar to'plami pasportini rasmiylashtirishni amalga oshiradilar.

11. Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish boshqarmasi axborot tizimini yuritish uchun zarur ma'lumotlarni ma'muriy ma'lumot bazalari bilan o'zaro integratsiya qilish orqali olish yuzasidan tashkiliy ishlarni amalga oshiradi.

12. Raqamli texnologiyalar va interaktiv xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasi Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi, Statistik registrnlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi hamda tegishli boshqarmalar bilan birgalikda, statistika kuzatuvlari ma'lumotlari va integratsiya yo'li bilan olinadigan ma'muriy ma'lumotlar asosida statistik registrnlarning raqamli bazasini ishlab chiqadi va ularga doimiy ravishda texnik xizmat ko'rsatadi.

4-bob. Ma'lumotlar to'plami pasportini rasmiylashtirish va unga qo'yiladigan talablar

13. Sohalar bo'yicha statistik registrnlarning raqamli bazasini yuritishda zarur ma'lumotlar to'plami pasporti mazkur Nizomga 2-ilovada keltirilgan namunaga muvofiq Statistika agentligining tegishli boshqarmalari tomonidan rasmiylashtiriladi.

Ma'lumotlar to'plami pasportiga kiritilgan ma'lumotlar va ko'rsatkichlar sohalar bo'yicha statistik registrnlarning raqamli bazasi ma'lumotlarining asosini tashkil etadi.

14. Ma'lumotlar to'plami pasportida ko'rsatilgan ma'muriy ma'lumotlar ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan idoralararo elektron hamkorlik yo'li bilan taqdim etiladi.

15. Ma'lumotlar to'plami pasporti quyidagi talablarga javob berishi lozim:
statistik tahlil uchun zarur bo'lgan to'liq va aniq ma'lumotlarni o'z ichiga olishi;

ma'lumotlarni taqdim etishga mas'ul davlat organlari va tashkilotlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq va aniq bo'lishi;

har bir yozuv boshqa ma'lumotlar to'plamlari bilan bog'lanish yoki ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan noyob identifikatorga (STIR, JSHSHIR) ega bo'lishi;

o'zaro mos axborot tizimlari va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik tasniflagichlardan foydalanilishi;

tegishli sohalaridagi o'zgarishlarni aks ettirish va tahliliy natijalarning ishonchliligini ta'minlash uchun ma'lumotlar to'plamlari dolzarb bo'lishi va muntazam yangilanishi.

5-bob. Statistik registrlarning raqamli bazasini yuritish

16. Statistik registrlarning raqamli bazasi Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

17. Sohalar bo'yicha statistik registrlarning raqamli bazasini yuritishga mas'ul xodim quyidagilarni ta'minlaydi:

ma'lumotlar to'plami pasportida belgilangan ma'lumotlarni integrallashgan tizim orqali muntazam kelib tushishini monitoring qilish hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchi va foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish;

ma'lumotlarning yaxlitligi va aniqligini ta'minlash uchun sifat nazorati choralari amalga oshirish hamda nomuvofiqliklar, takroriy yozuvlar va xatoliklarni tekshirib borish;

Statistika agentligi tomonidan o'tkazilgan rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish natijalari asosida sohalar bo'yicha statistik registrlarning raqamli bazasidagi ma'lumotlar sonini belgilangan tartibda kengaytirib borish;

axborot tizimidan foydalanish va ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish maqsadida tashkil qilinadigan o'quv seminarlarida qatnashish.

18. Axborot tizimi ma'lumotlari yo'qolishining oldini olish, shuningdek, vaqtli qatorlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni tarqatish, maqsadli jamlanmalar, byulletenlar va turli jadvallarni yaratish maqsadida, Statistika dasturiga asosan har oyning 1-kunidagi holatiga ko'ra, axborot tizimining oylik zaxira nusxasi shakllantiriladi.

19. Sohalar bo'yicha statistik registrlarning raqamli bazasini yuritishda ma'lumotlarni qidirish, filtrlash va tahlil qilishni osonlashtirish uchun CSV, JSON yoki XML standart ma'lumotlar formatlaridan foydalaniladi.

6-bob. Statistik registrlarning raqamli bazasini yuritishda ishtirok etadigan boshqarmalarning vazifalari

20. Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi quyidagilarni ta'minlaydi:

Statistika agentligi tizimining tegishli bo'linmalari tomonidan axborot tizimining birlamchi ma'lumotlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatini yaratish;
 axborot tizimini rivojlantirish asoslari va yo'nalishlarini ishlab chiqish;
 axborot tizimini yuritish bo'yicha foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini o'rganib chiqish va axborot tizimini takomillashtirish choralarini ko'rish;
 axborot tizimi dasturiy ta'minotini yangilash, boshqarish jarayonlarini soddalashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berib borish;
 axborot tizimini yuritish masalalari bo'yicha davlat organlari bilan idoralararo hamkorlik qilish.

21. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tegishli boshqarmalar bilan birgalikda quyidagilarni ta'minlaydi:

axborot tizimidan olingan birlamchi ma'lumotlarning kengayib borishi hisobiga statistika kuzatuvlari sonini qisqartirish;

ma'lumotlar to'plamlarini yangilash va dolzarbliqi masalalari bo'yicha takliflarni o'rganib chiqish;

axborot tizimi uchun zarur bo'lgan statistik tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish, xalqaro standart tasniflagichlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishini amalga oshirish.

22. Statistika agentligi markaziy apparati tegishli boshqarmalari quyidagilarni ta'minlaydi:

statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish, tahlil qilish, tekshirish, birlashtirish maqsadida axborot tizimidan foydalanish;

axborot tizimi ma'lumotlaridan foydalanish jarayonida statistika kuzatuvlarini amalga oshirishda olingan statistika ma'lumotlari bilan nomuvofiqligi, shuningdek, tahlillar natijasida aniqlik kiritilishi lozim deb hisoblanganda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchi organga ushbu ma'lumotlarga aniqlik kiritish to'g'risida so'rov yuborish;

statistika maqsadlari uchun ma'lum turdagi ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib va xalqaro tajribani o'rgangan holda dolzarb bo'lgan ma'lumotlar to'plamini shakllantirish maqsadida ma'muriy ma'lumot bazalariga qo'shimcha ko'rsatkichlarni kiritish yoki mavjudlarini o'zgartirish bo'yicha taklif kiritish;

ma'lumotlarni dolzarb holatda saqlab turish maqsadida ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning idoraviy axborot tizimlari va resurslarini monitoring qilib borish;

rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari statistika uslubiyotlarini xalqaro tavsiyalarga muvofiqligi bo'yicha auditdan o'tkazish doirasida ularning ma'muriy ma'lumot bazalarini ham ko'rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish.

23. Raqamli texnologiyalar va interaktiv xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasi Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi hamda Statistik registrnlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi bilan birgalikda quyidagilarni ta'minlaydi:

axborot tizimini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash, uzluksiz ishlashi va funksional imkoniyatlarini takomillashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

statistik registrnlarning raqamli bazasi zaxira nusxalarini saqlash va axborot xavfsizligini ta'minlash;

axborot tizimiga kirish yoki ma'lumotlarni olish bilan bog'liq har qanday texnik muammolarni aniqlash va hal qilish;

integrallashgan tizim orqali o'zaro elektron hamkorlikni amalga oshirishda axborot xavfsizligini va ma'lumotlar himoya qilinishini ta'minlash;

axborot tizimiga ruxsatsiz kirish va ma'lumotlar buzilishiga qarshi mustahkam raqamli himoya choralarini qo'llash orqali ma'lumotlar xavfsizligini oshirish.

24. Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish boshqarmasi mas'ul xodimlarning statistika ma'lumotlari bilan ishlash, jumladan, ma'lumotlar to'plamlarini shakllantirish bo'yicha ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishga qaratilgan o'quv kurslarini tashkil etishni ta'minlaydi.

7-bob. Shaxsga doir ma'lumotlarning himoyasini va konfidensiallikni ta'minlash

25. Shaxsga doir ma'lumotlarni nomuayyan doiradagi shaxslarga oshkor etishga, shu jumladan, shaxsga doir ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida hammaga ma'lum qilishga, Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirishga yoki shaxsga doir ma'lumotlardan biror-bir boshqa usul bilan foydalanish imkonini berishga yo'l qo'yilmaydi.

26. Statistik registrnlarning raqamli bazasi ma'muriy ma'lumotlari foydalanuvchilar tomonidan faqat statistika maqsadlarida foydalaniladi.

27. Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar va boshqa yuridik shaxslar o'z tasarrufidagi mavjud ma'lumotlarni taqdim etish chog'ida maxfiylik to'g'risidagi qoidalarni vaj qilib ko'rsatishi mumkin emas, bundan qonunda ma'lumotlarni taqdim etish va ulardan statistika maqsadlarida foydalanish to'g'ridan-to'g'ri istisno etilgan hollar mustasno.

28. Axborot tizimi sohasidagi vazifalar o'z zimmasiga olinayotganda uning maxfiyligiga rioya etish majburiyati foydalanuvchilar tomonidan imzolanadi.

Axborot tizimining maxfiyligiga rioya etish majburiyati ushbu foydalanuvchilar tomonidan vazifalar bajarilishi tugaganidan keyin ham yoki maxfiylikka rioya etish to'g'risidagi imzolangan hujjatda belgilangan muddat ichida amal qilishi davom etadi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Zarur hollarda, foydalanuvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda, Statistika agentligi tomonidan ma'lumotlar to'plami pasporti hamda axborot bazasi va ulardagi ma'lumotlar tarkibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

30. Statistik registrlarning raqamli bazasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tugatiladi.

Tugatishda, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, statistik registrlarning raqamli bazasi O'zbekiston Milliy arxiviga beriladi.

31. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Statistik registrlarning raqamli bazasini
yuritish tartibi to'g'risida
nizomga 1-ilova

**Statistik registrlarni raqamli bazasini yuritish
SXEMASI**

Bosqichlar	Mas'ullar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Tegishli boshqarmalar	Statistika hisoboti hamda kuzatuv shakllari yordamida olinadigan ko'rsatkichlar ro'yxatini shakllantiradi.	1 oy muddatda, har yilning 15-iyuniga qadar
2-bosqich	Tegishli boshqarmalar	1. Ko'rsatkichlar ro'yxatini davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan hamkorlikda ma'muriy ma'lumot bazalaridagi mavjud ma'lumotlar bilan solishtirish ishlarini amalga oshiradi. 2. Ko'rsatkichlarni solishtirish, tekshirish va istiqbolda o'rniga qo'llashni inobatga olgan holda ma'muriy ma'lumot bazalaridagi ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha rahbariyatga taklif kiritadi. 3. Sohalar bo'yicha statistik registrlarning raqamli bazasini yuritishda zarur ma'lumotlar to'plami pasportini rasmiylashtiradi.	10 kun ichida
3-bosqich	Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish boshqarmasi	Ma'lumotlar to'plami pasportiga asosan ma'lumotlarni ma'muriy ma'lumot bazalari bilan o'zaro integratsiya qilish orqali olish yuzasidan tashkiliy ishlarni amalga oshiradi.	15 kun ichida
4-bosqich	Raqamli texnologiyalar va interaktiv xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasi, tegishli boshqarmalar	1. Integratsiya yo'li bilan olinadigan ma'lumotlar asosida statistik registrlarning raqamli ma'lumot bazasini ishlab chiqadi. 2. Statistik registrlarning raqamli bazalariga texnik xizmat ko'rsatadi.	45 kun ichida Doimiy

Bosqichlar	Mas'ullar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
5-bosqich	Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi	1. Statistik registrlarning raqamli bazasini yuritadi. 2. Tegishli boshqarmalarga axborot tizimidagi birlamchi ma'lumotlardan mustaqil foydalanish imkoniyatini yaratadi.	Doimiy
6-bosqich	Tegishli boshqarmalar, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi	Ma'muriy ma'lumot bazalarini doimiy monitoring qilib borish orqali ma'muriy registrlardan olinadigan ko'rsatkichlar sonini oshiradi va yangilab boradi.	Doimiy

NAMUNA

**Sohalar bo'yicha statistik registrlarning raqamli bazasini
yuritishda zarur ma'lumotlar to'plami
PASPORTI**

1. Statistik registrlarning raqamli bazasi nomi	Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri
2. Ma'lumotlarni qayta ishlashga mas'ul boshqarma nomi	Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi
3. Ma'lumotdan foydalanuvchilar	Statistika agentligi tarmoq boshqarmalari, vazirlik va idoralar, jismoniy va yuridik shaxslar.
4. Ma'lumotlarni shakllantirish manbalari	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar (Adliya vazirligi, Davlat xizmatlari markazlari, Markaziy bank), Soliq qo'mitasi va Intellectual mulk agentligi ma'lumot bazalari, statistika hisobotlari
5. Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlar turlari va ularni shakllantirish manbalari	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar: Korxona va tashkilotlarni umumdavlat tasniflagichi kodi (KTUT); Soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR); korxona nomi; qisqartirilgan nomi; Ma'muriy hududiy obektni belgilash tizimi (MHOBT) kodi; manzili (ko'cha, uy, xonadon); telefon (ro'yxatdan o'tgan vaqtdagi); elektron pochta; Mulkechilik shakli tasniflagichi; Tashkiliy-huquqiy shakllar tasniflagichi; faollik holati o'zgarishi; asosiy faoliyat turi; qo'shimcha faoliyat turi; Davlat boshqaruv idoralarini belgilash tizimi (DBIBT); status (yuridik maqomga ega ekanligini belgilash); ta'sischi; ustav fondi; ro'yxatdan o'tkazgan tashkilot; ro'yxatdan o'tgan raqami; ro'yxatdan o'tgan sanasi; o'zgartirish kiritgan tashkilot; o'zgartirish kiritilgan raqami; o'zgartirish kiritilgan sana; tugatilgan sanasi; tugatish sababi; ishchilar soni (taxmin qilinayotgan ro'yxatdagi xodimlar soni); korxona turi (yirik, kichik);

	rahbari; boshqa korxonalar bilan aloqasi. Soliq qoʻmitasi: subyektning faoliyatini amalga oshirish manzili; rahbari oʻzgarishi; hisobchisi; yuridik shaxslarning qoʻshimcha telefon raqami. Intellectual mulk agentligi: mavjud litsenziyalari; savdo belgilari. Statistika hisobotlari (kuzatuvlari): yillik oʻrtacha ishchilar soni; IFUT oʻzgarishi (asosiy va ikkilamchi); daromadi (mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan yalpi daromad) (korxona turini tavsiflash imkonini beradi).
6. Ishlab chiqiladigan statistik axborotlar, koʻrsatkichlar	KTYADR bazasida davlat organlari va tashkilotlarning yuridik shaxslar toʻgʻrisidagi maʼmuriy maʼlumotlaridan foydalangan holda, statistika tasniflagichlariga asosan shakllantirilgan roʻyxat asosida korxona va tashkilotlarning demografiyasi toʻgʻrisidagi oylik maʼlumotlar shakllantiriladi.